

“O‘QUV JANGOVAR SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH VA TAKTIK TAYYORGARLIK FANINI O‘QITISHDA O‘QUV MASHG‘ULOTLARINING ASOSIY TURLARI”

Umarov Ismoiljon Olimjonovich

Fag‘ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakulteti katta o‘qituvchisi

Anotatsiya: *Ushbu maqolada Oliy ta’lim muassasalari harbiy fakultetlarda rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlashda, taktik fanlardan o‘qitishda o‘quv mashg‘ulotlarining asosiy turlari va qo‘llaniladigan interfaol metodlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Oliy ta’lim muassasa, taktik tayyorgarlik, rezerv va zaxiradagi ofitserlar, o‘quv mashg‘ulotlar, interfaol metodlar.*

KIRISH QISMI

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, buyuk sarkarda Amir Temur noyob mahorat va strategik tafakkurga ega bo‘lib, u o‘z qo‘shinlarini o‘qitishga, ta’lim tarbiya berishga katta e’tibor qaratgan. U maxsus o‘quv lagerlari va maktablarni tashkil etib, u yerda jangchilar jang san’ati bo‘yicha to‘liq kasbiy ta’lim olishgan. Ushbu maxsus o‘quv lagerlari va maktablarida jangchilar tomonidan taktika, strategiya, harbiy va muhandislik mashg‘ulotlari o‘qitilib borilgan, bu ularga janglarga yaxshiroq tayyorgarlik ko‘rish imkonini bergan.

Bundan tashqari, Amir Temur o‘z qo‘shinlarini turli millat va etnik guruhlardan tuzgan bo‘lib, ushbu madaniyatlar va tajribalarning xilma-xilligi kuchli va moslashuvchan armiyani yaratishga yordam berishini tushungan. Har bir guruh jang maydonida qo‘llashlari mumkin bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlar va ko‘nikmalarga ega edi.

Amir Temur qo‘shinlarning ruhiy holati muvaffaqiyatning asosiy omili ekanligini tushungan. U jangchilarining farovonligi haqida faol g‘amxo‘rlik qilgan va ularga munosib mukofotlar va imtiyozlar bergan. Bundan tashqari, u tez-tez o‘z qo‘shinlari oldida ilhomlantiruvchi nutq so‘zlagan va jang maydonida ular bilan birga jang qilgan.

ASOSIY QISM

Barchamizga ma’lum, so‘ngi yillarda mamlakatimizda ta’lim tizimiga e’tibor kuchaytirildi. Ta’lim tizimini izchil rivojlantirish yuzasidan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz ta’lim tizimidagi islohotlarning mantiqiy davomi, o‘z vaqtida qabul qilingan muhim hujjatlardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida harbiy tayyorgarlik tizimi bu, eng avvalo, oliy kasbiy ta’lim tizimining shu qatorda harbiy ta’limning ham va umumiy

ta'lim tizimining asosiy qismidir. Oliy ta'lim muassalarida harbiy ta'limning nazariy va amaliy faoliyati, tizimni takomillashtirish va kerakli harbiy kadrlarni tayyorlash yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Taktik tayyorgarlik oliy ta'lim muassasasi harbiy ta'lim fakultetlarda etakchi fan hisoblanadi. Fan oldida turgan asosiy maqsad, tinglovchilarda yuqori komandirlik hislatlarini tarbiyalash, jangning murakkab vaziyatlarida mustaqil, operativ qaror qabul qila oladigan, bo'linmalarga mohirlik bilan rahbarlik qila oladigan umumqo'shin bo'linmalarining komandirlarni tayyorlash. Ularni yuqori axloqiy, ruhiy sifatlarini, keng dunyoqarashini, bilimini, peshqadamlik sifatlarini, o'z Vataniga va Qurolli Kuchlariga nisbatan faxr bilan tarbiyalash.

Taktik tayyorgarlik umumqo'shin bo'linmalari komandirlarining kasbiy mahoratining asosi hisoblanadi, u o'zida jangovar, axloqiy-ruhiy sifatlarini mujassamlashtirishi, bo'ysunuvchilarni faol jangovar xarakatlari olib borishga, hamda dushman ustidan har qanday sharoitda g'alabaga qozonishga unday olishi lozim.

Taktik tayyorgarlikning asosiy maqsadi har bir tinglovchining, kelajakda ofitser bo'lib muvafaaqiyatli jangni tashkillashtirish va olib borish uchun bilimli bo'lishi va amaliy tajriba ortirishidir.

Taktik fanlarni o'qitishda o'quv mashg'ulotlarining asosiy turlari jumlasiga: ma'ruzalar, seminarlar, guruh tarkibida o'tkaziladigan mashg'ulotlar, amaliy mashg'ulotlar, taktik (maxsus-taktik) mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim kiradi.

Ma'ruza o'quv mashg'ulotlarning eng muhim turlaridan biri sanalib, tinglovchilarning nazariy tayyorgarligini tashkil etadi. Ma'ruza – bu mavzuning ko'rib chiqilayotgan savollari bo'yicha kengaytirilgan nazariy axborot berish, ilmiy tahlil qilishdir. O'qiladigan ma'ruzalar maqsadi fanga oid ilmiy bilimlarning muayyan tizimga solingan asoslarini havola etish, fan va texnikaning muayyan sohadagi holati va taraqqiyotining istiqbollari yoritish, eng murakkab va asosiy masalalarga e'tiborni qaratishdan iboratdir.

Seminar o'quv dasturining asosiy va eng murakkab masalalari (mavzulari, bo'limlari) bo'yicha o'tkaziladi. Seminarlarning bosh vazifasi – ma'ruzalar davomida hamda o'quv va ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlash jarayonida egallangan bilimlarni mustahkamlash, o'quv materiallarini izlab topish, umumlashtirish va bayon etish ko'nikmalarini singdirishdir. Seminar maqsadlariga turli usullar vositasida erishilishi mumkin. An'anaviy savol-javoblar usuli bilan bir qatorda munozara o'tkazish, o'quv guruhini muxolif jamoalarga bo'lib interfaol usullarni qo'llab seminar o'tkazilishi mumkin.

Guruh mashg'ulotlari harbiy texnika va obyektlar, qurol-aslaha va o'q dorilarni o'rganish maqsadida o'tkaziladi hamda ularni qo'llash, ishlatish va ta'mirlashni tashkillashtirish bo'yicha tinglovchilarni o'qitish asosini tashkil qiladi. Guruh mashg'ulotlari maxsus sinflarda, trenajyor, dala-o'quv va umumharbiy tayyorgarlik bazalaridan maksimal foydalangan holda o'tkaziladi. Ayrim guruh mashg'ulotlarida,

faqat tor doiradagi mutaxassisliklar uchun ahamiyatga ega bo'lganligi sababli umumiy oqimda ko'rib chiqilmagan savollar, ta'lim oluvchilarga ma'ruza usulida yetkazilishi mumkin.

Guruh mashqlari tinglovchilarning jangovar harakatlarni rejalashtirish, tashkillashtirish, ta'minlash va qo'shinlarni boshqarish bo'yicha amaliy tajribani egallashi maqsadida taktik va taktik-maxsus fanlar bo'yicha o'tkaziladi. Qoidaga ko'ra, guruh mashqlarida barcha tinglovchilar ma'lum bir mansabdor shaxsning vazifa (мажбурият)ларини бажарган ҳолда ҳаракатланади.

Amaliy mashg'ulotlar mashq qilish usuli orqali o'tkazilishi mumkin. Ushbu mashg'ulotlarning bosh mazmuni – har bir tinglovchining amaliy ishidir.

Qurol-aslaha va harbiy texnikada imitatsiya vositalari qo'llanilgan tarzda o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda, taktik fanlar bo'yicha guruh tarkibida o'tkaziladigan mashg'ulotlar davomida bajarilishi lozim bo'lgan ishlarning belgilangan hajmini har bir tinglovchi sifatli va to'la-to'kis bajarishi uchun o'quv guruhi va undan katta o'quv bo'linmasi 12-15 nafar tinglovchilardan iborat kichik guruhlarga bo'linadi.

Taktik (maxsus-taktik) mashg'ulotlar tinglovchilarni bo'linmalar (guruh va vzvodga teng bo'linmalar) jangini tayyorlash, tashkillashtirish, ta'minlash va olib borishga amaliy o'rgatishning asosi sanaladi.

Ushbu mashg'ulotlar tabiiy joyda qurol-aslaha va harbiy texnika qo'llanilib o'tkaziladi. Bir tomonlama, ikki tomonlama, dushmani ishoralab, jangovar o't ochish bosqichi bilan o'tkazilishi mumkin.

Taktik (maxsus-taktik) mashg'ulotlarda komandirning jangdagi majburiyatlarini bajarishga doir oldin tasarruf etilgan ko'nikmalar takomillashtirilib, yangi ko'nikmalar shakllantiriladi.

Ushbu mashg'ulotlar uchun belgilangan o'quv savollari izchillik bilan, jang g'oyasi va taktik vaziyatga muvofiq, o'zlashtirilayotgan jang turiga xos vaqt va sur'at bo'yicha, bajarish talab etilayotgan harakatlarni oldindan tinglovchilarga tushuntirib o'tilmagan tarzda o'rganib boriladi. Dushman harakatlari mashg'ulot rahbarining yordamchisi boshqarayotgan sun'iy nishonlarni, imitatsiya vositalarini, harbiy texnikaning ayrim namunalarini boshqarish orqali ishoralanadi.

XULOSA:

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz OTMda rezerv va zaxiradagi ofitser kadrlarni tayyorlashda taktik tayyorgarlik fani muhim va markaziy o'rinni egallaydi. Qolgan fanlar yordamchi fan tarkibida xisoblanadi. Taktika fanlarni o'qitishda rahbariy xujjatlarning talablariga tayanish zarur. Mashg'ulotlar davomida ta'limning innovatsion metodlaridan unumli foydalanish o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Taktik tayyorgarlik fanlarni real jangovar vaziyatlarga, zamonaviy urushlar tajribasiga bog'lab o'qitish zarur. Amaliy mashg'ulot va taktik-maxsus o'quvlarda tinglovchilarning amaliy ko'nikmalarini takomillashtirish. Shuningdek, mashg'ulotlar

sifati professor-o'qituvchilarning ma'suliyatiga, tinglovchilarning tirishqoqligiga va o'quv - moddiy baza holatiga bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi umumiy taktika 3-kitob guruhi, seksiya, tank 2004 yil.

2. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar quroqligida kushinlarning janqovar nizomi guruhi, seksiya, tank 3-qism. 2022 yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi quroqligida kushinlarning janqovar nizomi 3-qism 2010 yil.

4. Umarov, I. O. (2021). **HARBIY TAYYORGARLIK O 'QUV MARKAZIDA REZERVDA GI VA ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORLASH: AN'ANALARI, INNOVATSIYALARI, ISTIQBOLLARI.** *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 939-944.

5. Umarov I. O., Abduraximov I. **ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORLASHDA, HARBIY TA'LIMNING MAQSADI, VAZIFALARI VA ISTIQBOLLARI** // *Journal of Integrated Education and Research*. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 15-18.

6. Olimjonovich U. I., Son H. P. J., Bahadirovich Y. S. **THE SECOND WORLD WAR TURNED INTO AN INDUSTRIAL BUILDING AREA** // *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*. – 2022. – T. 2. – №. 10. – C. 264-268.

7. Olimjonovich, Umarov Ismailjon, Hakimov Paxlavon Jalaldin Son, and Yusupov Shahzodbek Bahadirovich. **"THE SECOND WORLD WAR TURNED INTO AN INDUSTRIAL BUILDING AREA."** *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies* 2.10 (2022): 264-268.

8. Olimjonovich, U. I., Son, H. P. J., & Bahadirovich, Y. S. (2022). **THE SECOND WORLD WAR TURNED INTO AN INDUSTRIAL BUILDING AREA.** *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(10), 264-268.

9. Olimjonovich U. I. et al. **YOSHLARDA AXBOROT HAMDA MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKILLANTIRISH** // *Journal of new century innovations*. – 2022. – T. 17. – №. 4. – C. 111-115.

10. Olimjonovich, Umarov Ismoiljon, et al. **"YOSHLARDA AXBOROT HAMDA MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKILLANTIRISH."** *Journal of new century innovations* 17.4 (2022): 111-115.

11. Olimjonovich, U. I., Rahmatali o'g'li, E. S., Nurali o'g'li, J. R. S., & Ikromjon o'g'li, I. S. (2022). **YOSHLARDA AXBOROT HAMDA MAFKURAVIY**

TAHDIDLARGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKILLANTIRISH. Journal of new century innovations, 17(4), 111-115.

12.Olimjonovich U. I. et al. HARBIY BILIM YURTLARIDA HARBIY PSIXOLOGIYA FANINING O'RGATISH AFZALLIKLARI VA AHAMIYATI //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 415-419.

13.Olimjonovich, Umarov Ismoiljon, et al. "HARBIY BILIM YURTLARIDA HARBIY PSIXOLOGIYA FANINING O'RGATISH AFZALLIKLARI VA AHAMIYATI." Scientific Impulse 1.4 (2022): 415-419.

14.Olimjonovich, U. I., Rahmatali o'g'li, E. S., Nurali o'g, J. R. S., Ikromjon o'g'li, I. S., & Ahrorjon o'g'li, K. A. (2022). HARBIY BILIM YURTLARIDA HARBIY PSIXOLOGIYA FANINING O'RGATISH AFZALLIKLARI VA AHAMIYATI. Scientific Impulse, 1(4), 415-419.

15.Umarov I. O., Abduraximov I. ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORLASHDA, HARBIY TA'LIMNING MAQSADI, VAZIFALARI VA ISTIQBOLLARI //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 15-18.

16.Umarov, Ismoiljon Olimjonovich, and Iskandar Abduraximov. "ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORLASHDA, HARBIY TA'LIMNING MAQSADI, VAZIFALARI VA ISTIQBOLLARI." Journal of Integrated Education and Research 1.7 (2022): 15-18.

17.Umarov, I. O., & Abduraximov, I. (2022). ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORLASHDA, HARBIY TA'LIMNING MAQSADI, VAZIFALARI VA ISTIQBOLLARI. Journal of Integrated Education and Research, 1(7), 15-18.

18.Umarov I., Ergashev S., Salimov J. THE RELATIONSHIPS OF FORMING LIFE CONTENT AND CREATIVE THINKING OF MILITARY SERVANTS //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 1. – C. 23-27.

19.Umarov, Ismoiljon, Shahrukhhan Ergashev, and Javohir Salimov. "THE RELATIONSHIPS OF FORMING LIFE CONTENT AND CREATIVE THINKING OF MILITARY SERVANTS." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.1 (2023): 23-27.

20.Umarov, I., Ergashev, S., & Salimov, J. (2023). THE RELATIONSHIPS OF FORMING LIFE CONTENT AND CREATIVE THINKING OF MILITARY SERVANTS. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(1), 23-27.

21.Olimjonovich U. I., Son H. P. J., Bahadirovich Y. S. THE SECOND WORLD WAR TURNED INTO AN INDUSTRIAL BUILDING AREA //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 10. – C. 264-268.

22.Olimjonovich, Umarov Ismailjon, Hakimov Paxlavon Jalaldin Son, and Yusupov Shahzodbek Bahadirovich. "THE SECOND WORLD WAR TURNED INTO

AN INDUSTRIAL BUILDING AREA." European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies 2.10 (2022): 264-268.

23.Olimjonovich, U. I., Son, H. P. J., & Bahadirovich, Y. S. (2022). THE SECOND WORLD WAR TURNED INTO AN INDUSTRIAL BUILDING AREA. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(10), 264-268.

23.Olimjonovich U. I. et al. YOSHLARDA AXBOROT HAMDA MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKILLANTIRISH //Journal of new century innovations. – 2022. – T. 17. – №. 4. – C. 111-115.

24. Olimjonovich, Umarov Ismoiljon, et al. "YOSHLARDA AXBOROT HAMDA MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKILLANTIRISH." Journal of new century innovations 17.4 (2022): 111-115.

25.Olimjonovich, U. I., Rahmatali o'g'li, E. S., Nurali o'g, J. R. S., & Ikromjon o'g'li, I. S. (2022). YOSHLARDA AXBOROT HAMDA MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKILLANTIRISH. Journal of new century innovations, 17(4), 111-115.